OG’ZAKI TARJIMA VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDA TUTGAN O’RNI

Xudoyberdiyev Jasur
O’zDJTU o’qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli tarjimon olimlar tomonidan “og’zaki tarjima” tushunchasiga berilgan bir qancha ta’riflar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek og‘zaki tarjima turlari tasnifi hamda og‘zaki va yozma tarjima o‘rtasidagi ba’zi farqlar, jumladan, zamonaviy tarjimada og‘zaki tarjimaning o‘rni xaqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Og’zaki va yozma tarjima, og’zaki tarjima turlari, tarjimon, interpretatsiya, usul.

Og’zaki tarjima tarjima turlari ichida eng qiyin turlardan biri bo’lib, u tarjimondan nafaqat mukammal bilim bilan birga balki xatto oddiy bir maqolning ma'nosini tez, to'liq anglagan xolda tarjimasini tinglovchiga oson yetkazishdan tortib to og'zaki til tarjima qobiliyatlari va barcha mavzularni bilish ko'nikmalariga qadar bo’lgan murakkab barcha jarayonlarni o’z ichiga qamrab oladi.

Og’zaki tarjima tushunchasi va faoliyatiga juda ko'p tarjimon olimlar talqinida ko’plab ta'riflar keltirib o’tilgan. Jumladan, Berkovning ta’kidlashicha, og'zaki tarjima - tarjimaning shunday turiki, u tarjima jarayonida asl matn va uning tarjimasi mutanosibligining aniqlanmagan shaklida paydo bo'ladi. Bu esa oldindan belgilab qo'yilgan tarjimonning bir martalik idrok imkoniyatini kamaytiradi, tarjimani tugallagandan keyin asl nusxa bilan taqqoslash va yo’l qo’yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun keyingi tarjimaning mumkin emasligi og’zaki tarjimaning naqadar murakkab jarayon ekanligining yorqin dalilidir. Bundan anglashiladiki, og’zaki tarjima jarayonida tarjima matnini yaratish idrokga parallel ravishda asl nusxani tarjimon ko’z oldida gavdalantira olishidadir.

Nelyubin esa ushbu tushunchani “- bu tarjimon tomonidan amalga oshirilgan xabar mazmunini boshqa tilga yozmasdan bittadan og'zaki tarjima qilish jarayoni” deya ta’riflaydi.

Ko’plab olimlar talqinidan kelib chiqib aytish mumkinki, og'zaki tarjima – bu bir vaqtning o'zida (sinxron tarjima) yoki ketma-ket (ketma-ket tarjima) tashkil etishni nazarda tutuvchi faoliyat turi bo’lib, ikki yoki undan ortiq kommunikatorlar o'rtasidagi har qanday sababga ko'ra bir-birini tushuna olmaydigan vaziyatda og'zaki yoki bir xil belgilar to'plamidan foydalangan holda imo-ishora orqali amalga oshirilgan aloqa turidir. Shu bilan birga og’zaki tarjima – bu turli tillararo og’zaki amalga oshiriladigan aloqa vositasi bo’lib, tarjimon ushbu vaziyatda turli til sohiblari o’rtasida asl manba bilan bir xil kommunikativ qiymatga ega bo‘lgan, tarjima qilingan matn yordamida turli tillarda so‘zlashuvchi kishilar o‘rtasida ma’lumot almashinish imkoniyatini yaratib beradi.

Og’zaki tarjimani asosan ketma-ket va sinxron tarjima turlariga ajratish mumkin. Ketma-ket tarjimada tarjimon ma’lum bir nutqni tinglaydi, uning muhim joylarini yozib oladi, so‘ngra to‘liq yoki qisqa shaklda, ya’ni barcha tafsilotlar yoki asosiy mazmunni tarjima qilish orqali uni ikkinchi tamonga yetkazib beradi. Ko‘p hollarda tinglovchilar faqat asl ma’noning asosiy qismi tarjimasi bilan kifoyalanadilar, boshqa bir hollarda esa tarjimon faoliyatida arzimas tushirib qoldirish yoki kichik xatoliklar kuzatilishi mumkin. Ayni damda eshittirilgan matnni imkon qadar yozib olish ana shu kamchiliklarga yo’l qo’ymaslikni ma’lum bir ma’noda kafolatlaydi.

Sinxron tarjimada esa tarjimon so‘zlovchining nutqini eshitib, shu zahotiyoq tarjima qilishi darkor. Qoida tariqasida, sinxron tarjima texnik vositalarni qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda so‘zlovchining nutqi maxsus jixozlangan kabinada o‘tirgan tarjimonga «maxsus quloqchinlar» yordamida yetkaziladi hamda tarjimonning mikrofon orqali uzatgan tarjimasi tinglovchilarga

yetkaziladi. Sinxron tarjima juda murakkab jarayon hisoblangani bois tarjimon tarjima jarayonida juda katta ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu jarayonda tarjimon so‘zlovchi nutqi tezligidan orqada qolmasligi muhim hisoblanadi. Bu jarayonda kerakli jumlalarni yozib olish imkoni deyarli bo’lmaydi.

Tarjima jarayonida og‘zaki tarjimon oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1) aniq talaffuz qilish;

2) nutq maromini bir xil saqlash;

3) jumlalarning mazmuniy bog‘liqligiga e’tibor berish.

Og‘zaki tarjimaning o’ziga xos xususiyati shundaki, unga yozma tarjimadan farqli o‘laroq, maxsus tarjima deb qarash lozim. Og‘zaki tarjima faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis tarjimaning ushbu ko‘rinishida ham son, ham sifat jihatidan xarakterli xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi. Yozma va og‘zaki tarjima xarakteri unda ishtirok etuvchi kishilar saviyasi bilan ham belgilanadi. Masalan, yozma tarjimada kommunikant «matn» hisoblanadi, shuning bois tarjimonning diqqat markazida tarjima qilinadigan matn turadi va tarjima sifatiga faqat tarjima tugaganidan keyingina baho beriladi. Og‘zaki tarjimada esa tarjimon kommunikant bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Tarjimon so‘zlovchining nutqi qanday bo‘lishidan qatiy nazar, uni tarjima qilishi lozim. Shuning uchun tarjimon bilan so‘zlovchining o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish omili ham yotadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, xozirgi rivojlangan zamonaviy dunyoda ko'plab mamlakatlar va millatlar o’rtasida har bir sohada yuksak isloxotlarni amalga oshirib, o’zaro fikr almashishda og’zaki tarjimonga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Globallashuv tom ma'noda yaratilgan biznes chegaralari ko’lamini kengaytirishda, hamkorlik shartnomalari va transmilliy korporatsiyalar va kompaniyalardan dunyoning turli mamlakatlari to'g'ridan-to'g'ri foydalana olishida og’zaki tarjimonning roli ortib borar ekan, ushbu faoliyat turini yanada rivojlantirish yo’lida turli izlanishlar izchil davom etaveradi. Ushbu izlanishlar esa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari mavzusiga aylanib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1983.
2. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – T.: 1983.
3. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1983.
4. Швейцер А. Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988.
5. Берков В.П. О словарных переводах. − М.: Сов.писатель, 1971.
6. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Флинта, 2003.